

## **Avtoto'lov xizmatini taqdim etish shartlari**

«Avtoto'lov» xizmatini ko'rsatishning mazkur qoidalari (keyingi o'rnlarda "Oferta" deb yuritiladi) Humans MCHJ (keyingi o'rnlarda "Humans" deb yuritiladi), manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'ch., 2-b uy, ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami 749733, STIR 306 624 856, telefon: 1234, tomonidan nomuayyan shaxslar doirasiga yo'naltirilgan ommaviy oferta hisoblanib, Mijoz ularni quyida keltirilgan tartibda qabul qilgan vaqtidan boshlab Mijoz va Humans o'rtasida aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun tuzilgan shartnomaga nisbatan qo'shimcha kelishuvga aylanadi.

### **1. Atamalar**

**Avtoto'lov** – Oferta doirasida Humans tomonidan Mijozga ko'rsatiladigan, Mijozga Humans tomonidan taqdim etiladigan Xizmat uchun oldindan to'lov (avans) sifatida foydalilanadigan mablag'lar balansiga to'lovni o'zining Shaxsiy hisobvarag'ida amalga oshirish imkonini taqdim etishga qaratilgan xizmat. Hisobni to'ldirish Mijozning tegishli Bank kartasidan foydalangan holda Mijoz tomonidan va bank hamda Mijoz o'rtasidagi kelishuv asosida tegishli bank tomonidan Mijozning Bank kartasidan pul mablag'larini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

**Bank kartasi** — emitenti bank hisoblangan, naqd pulsiz hisob-kitob vositasi bo'lган, Mijoz tomonidan uning bank hisobvaraqlarida saqlanadigan pul mablag'lari bilan, yoki bank hisobvarag'i shartnomasiga muvofiq yoki bank va Mijoz o'rtasidagi shartnomada shartlariga muvofiq belgilangan limit doirasida bank tomonidan Mijozga kredit sifatida taqdim etilgan pul mablag'lari bilan operatsiyalar amalga oshirish uchun mo'ljallangan UZCARD yoki HUMO to'lov tizimlarining plastik yoki virtual bank kartasi (bunday kartadan Shartnomada bo'yicha Humans xizmatlarini to'lash uchun foydalanish mumkin bo'lsa).

**Shartnomा** — Mijoz va Humans o'rtasida tuzilgan aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi Shartnomा.

**Mijoz** — Humans bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida Shartnomada tuzgan shaxs.

**Ilova** — mobil operatsion tizimlar uchun Humans ilovasi bo'lган, Mijozning foydalanuvchi abonent qurilmasiga (smartfon, planshet) o'rnatiladigan dasturiy ta'minot.

**Servis-provayder** — Humans bilan tuzilgan shartnomada asosida va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi normalariga muvofiq Bank kartalaridan foydalangan holda to'lov qilish bo'yicha operatsiyalar amalga oshiruvchi Humans hamkor.

**PAN** — Bank kartasining 16 xonali raqami.

**Expiry date** — Bank kartasining amal qilish muddati.

Qolgan atamalar Shartnomada ko'rsatilgan mazmunga ega.

### **2. Avtoto'lov xizmatining tavsifi**

2.1. Avtoto'lov Mijozga Bank kartasidan foydalangan holda o'z Shaxsiy hisobvarag'ini avtomatik ravishda to'ldirishga imkon beradi. Bank kartasi haqidagi ma'lumotlarni Mijoz Bank kartasini Mobil ilovada bog'laganida Humans'ga taqdim etgan bo'ladi.

2.2. Humans tomonidan ko'rsatiladigan Xizmatlardan tijoriy faoliyat va foyda olishni maqsad qilmagan holda, faqat shaxsiy va maishiy maqsadlarda foydalanadigan har qanday jismoniy shaxs ushbu Oferta shartlarini qabul qilishi mumkin.

2.3. Bank kartasi bo'yicha Ofertada ko'zda tutilgan barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

2.4. Avtoto'lov Mijoz tomonidan qo'shimcha to'lovlar undirilmagan holda taqdim etiladi.

### **3. Avtoto'lovni ularash**

3.1. Avtoto'lovni ularash uchun Mijoz Ilovada quyidagi harakatlarni amalga oshirishi kerak:

- Ilovada «Bank kartasini qo'shish» harakatini tanlashi;
- Bank kartasida aks etgan ma'lumotlar: PAN, expiry date, shuningdek Bank kartasi bog'langan telefon raqamini (mamlakat kodi bilan) kiritishi;
- Ilova interfeysi qo'llanmalariga qarab ish tutgan holda maxsus parol yordamida yoki to'lov tizimi yoki Bank kartasining emitenti bo'lgan bank tomonidan o'rnatilgan autentifikatsiyaning boshqa usullari orqali autentifikatsiyadan o'tishi. Bank kartasi ma'lumotlari haqiqiyligi tekshiruvidan muvaffaqiyatli o'tilganidan so'ng Bank kartasining bog'lanishi amalga oshirilgan, Avtoto'lov xizmati esa ulangan hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni 2021.02.24 gacha amalga oshirgan Mijozlarga 2021.02.24 dan boshlab Mijoz tomonidan asosiy karta sifatida ko'rsatilgan Bank kartasida Avtoto'lov xizmati yoqiladi.

3.2. Ilovada Avtoto'lov Mijoz tomonidan faqat bitta Bank kartasiga nisbatan ulanishi mumkin. Yangi bank kartasini bog'lashda Mijoz Ilova Interfeysining qo'llanmalariga qarab ish tutgan holda yangi Bank kartasida Avtoto'lov xizmatini mustaqil ravishda ulab oladi. Yangi Bank kartasida xizmat ulanganida oldingi bank kartasida Avtoto'lov avtomatik ravishda o'chiriladi.

3.3. Mijoz Ilovaga bog'langan istalgan Bank kartasi uchun Avtoto'lovni Ilovaning «Aloqa» bo'limida istalgan payt mustaqil ravishda yoqib olishi mumkin. Buning uchun Avtoto'lov sozlamalarida svitcherni o'chirilgan holatga o'tkazish talab etiladi.

Avtoto'lovni bitta Bank kartasidan boshqa Bank kartasiga o'tkazishda Humans tomonidan ma'lumotga ishlov berish bir sutka ichida amalga oshiriladi.

3.4. 3.1. yoki 3.3. bandlarida keltirilgan harakatlarni amalga oshirar ekan, Mijoz Avtoto'lov xizmatini ulaydi va ushbu Oferta bilan tanishib chiqqanini va uni qabul qilishini tasdiqlaydi.

### **4. Avtoto'lov xizmatining ishlash tartibi**

4.1. Avtoto'lovdan foydalanishda quyidagi cheklovlar o'rnatiladi:

- 4.1.1. Bir martalik to'lov summasi bo'yicha cheklov – 200 000 UZS;
- 4.1.2. Bir oylik to'lovlar summasi bo'yicha cheklov - 200 000 UZS;
- 4.1.3. Bir oyda bitta Bank kartasidan to'lovlar soni – 11 ta;
- 4.1.4. Bir sutkada abonent raqami hisobini to'ldirish bo'yicha urinishlar soni (jumladan muvaffaqiyatli urinishlar) – 3 ta.

4.2. Avtoto'lov yoqilganida Mijochning Shaxsiy hisobvarag'ini quyidagi qoidalarga ko'ra avtomatik tarzda to'ldirish imkoniyati paydo bo'ladi:

4.2.1. «Alovida toifadan raqam taqdim etish» xizmatini taqdim etish shartlari bo'yicha tegishli davr uchun to'lov qilinishi lozim bo'lgan summa va Mijochning Shaxsiy hisobvarag'idagi mablag'lar summasi o'rtasidagi mablag'lar farqiga teng bo'lgan summaga «Alovida toifadan raqam taqdim etish» xizmati bo'yicha davriy to'lovni amalga oshirish uchun Avtomatik to'lov (Bank kartasidan mablag'ning akseptsiz yechib olinishi).

4.2.2. Amaldagi Tarifni navbatdagi hisob-kitob davriga taqdim qilishda davom etish uchun zarur bo'lgan summa va Mijochning Shaxsiy hisobvarag'idagi mablag'lar summasi o'rtasidagi mablag'lar farqiga teng bo'lgan summaga amaldagi Tarifni avtoprolongatsiya qilish uchun Avtomatik to'lov (Bank kartasidan mablag'ning akseptsiz yechib olinishi). To'lovni amalga oshirish paytida mijozning Shaxsiy hisobvarag'ida qarzdorlik bo'lsa, bunday qarzdorlik ham Avtoto'lov summasiga qo'shiladi. Ba'zi Tarif va xizmatlarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri Avtoto'lov amalga oshirish imkoniyati yo'qligi ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin.

Bu holda hisobni to'ldirish uchun Mijoz «Hisobni to'ldirish» bo'limidan foydalangan holda Shaxsiy hisobvaraq balansini to'ldirishi kerak.

Ushbu bandda ko'zda tutilgan barcha imkoniyatlarning taqdim etilishi, Ofertaning 3-bo'limida belgilanganidek, Avtoto'lov ulanish vaqtida amalga oshiriladi.

4.3. Bank kartasining emitent banki, Servis-provayder yoki to'lov tizimi tomonidan cheklovlar o'rnatilganida (misol uchun, har bir to'lovda bir martalik parolni kiritish talab qilinganida) Avtoto'lovdan foydalanish imkonini taqdim etilmasligi mumkin. Bunday holatlar Avtoto'lov xizmati ishlashining texnologik xususiyatlari hisoblanib, uni tegishli darajada ko'rsatilmaganini anglatmaydi.

4.4. Avtoto'loving o'chirilishi quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- Mijoz tomonidan Ilovaning «Aloqa» bo'limida Avtoto'lov sozlamalarida svitcherni o'chirilgan holatga o'tkazish orqali. Mijoz xizmatni istalgan payt o'chirib qo'yishi mumkin;
- Bank kartasi yo'qotilganida Aloqa Markaziga murojaat qilish orqali. Bunday holatda Mijozning so'roviga binoan Bank kartasi yechib olinadi, Avtoto'lov xizmati tegishli Bank kartasiga nisbatan o'chiriladi;
- Oferta shartlarida ko'zda tutilgan tartibda Avtoto'lov xizmatining amal qilishi to'xtatilganida;
- Sharhnomaning amal qilishi to'xtatilganida.

## **5. Tomonlarning huquq va majburiyatları**

5.1. Mijozning majburiyatları:

5.1.1. Oferta shartlari bilan tanishib chiqish va ularga rioya qilish.

5.1.2. Abonent qurilmasi, SIM-kartasi va Ilovasini uchinchi shaxslar foydalanishidan himoya qilish. Mijoz har qanday holatda uning SIM-kartasi va Ilovasidan foydalangan holda amalga oshirilgan harakatlar uchun javobgar.

5.1.3. Faqat o'ziga tegishli bo'lgan hamda bank va Mijoz o'rtasida tegishli sharhnomaga erishilgan shaxsiy Bank kartasidan foydalanish. Agar Mijoz o'ziga tegishli bo'limgan Bank kartasidan foydalansa, u holda u Mijozning yuqorida sanab o'tilgan harakatlari tufayli karta egasiga yetkazilgan/yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

5.1.4. Bank kartasi yo'qotilganida bu haqda Aloqa markaziga zudlik bilan xabar berish.

5.1.5. Avtoto'lovdan foydalanganda Identifikatorlarni uchinchi shaxslarga uzatmaslik. Identifikatorlar va Avtoto'lovdan uchinchi shaxslarning atayin foydalanishi bilan bog'liq barcha xavf-xatarlar uchun, agar ular Mijoz tomonidan kerakli darajada himoya qilinmagan bo'lsa, Mijoz shaxsan javobgar hisoblanadi.

5.2. Mijoz quyidagilarga o'z roziligidini bildiradi:

5.2.1. Humans Xizmatlarini to'lash uchun Mijozning Bank kartasidan mablag' yechilishi uchun Servis-provayderga Humans tomonidan topshiriq yo'llanishiga va Ilovadan foydalanish bo'yicha o'z harakatlarini tan olish majburiyatini o'z zimmasiga olishga.

5.2.2. Avtoto'lov xizmatini ko'rsatish, shuningdek Mijoz tomonidan buyurtma berilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatish yoki Servislarni taqdim etish maqsadida Bank kartasida bo'lgan ma'lumotlar tekshirilishi, saqlanishi va ulardan foydalaniishiga.

5.3. Humans'ning majburiyatları:

5.3.1. Mijozga Avtoto'lovdan foydalanish va xizmatni Ilova orqali boshqarish imkonini taqdim etish.

5.3.2. Mijozning da'vo va murojaatlarini qonunchilikda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqish.

5.3.3. Servis-Provayder bilan o'zaro aloqada bo'lganda talab etiladigan xavfsizlik choralarini ko'rish va Bank kartasi va to'lovlari (mablag' yechilishi) to'g'risida ma'lumotlarni uzatish.

5.4. Humans quyidagilarga haqli:

5.4.1. Quyidagi hollarda Mijozga Avtoto'lov xizmatini taqdim etishdan bosh tortishga (yoki Humans qaroriga ko'ra tegishli Bank kartasi bo'yicha operatsiyalarni vaqtincha to'xtatib qo'yishga):

- Mijoz tomonidan Avtoto'lov protsedurasiga amal qilinmaganida;
- Mijoz tomonidan Oferta qabul qilinmaganida yoki Mijoz keyinchalik Ofertadan bosh tortganida;
- Bank kartasi ma'lumotlari Oferta shartlariga muvofiq tekshiruvdan muvaffaqiyatli o'tilgani haqida Bank kartasi emitentidan Humans tomonidan ma'lumot olinmaganida;
- Servis-provayder va/yoki Bank kartasi emitentidan karta ma'lumotlari bo'yicha operatsiyalar o'tkazish haqida rad javobi olinganida;
- Mijoz tomonidan noto'g'ri (shubhali) ma'lumotlar ko'rsatilganida;
- Bank kartasidan g'ayriqonuniy foydalanish fakti to'g'risida Bank kartasi egasining yozma murojaati mavjud bo'lsa.

5.4.3. Ofertaning 4.1. bandida ko'rsatilgan cheklovlarni Saytda ma'lumot joylashtirgan holda Mijozni xabardor qilib, bir tomonlama tartibda o'zgartirishga.

## **6. Tomonlarning javobgarligi**

6.1. Humans'ning Mijoz oldidagi Oferta shartlari bo'yicha javobgarligi Humans Xizmatlarini to'lash uchun Avtoto'lov xizmatidan foydalangan holda Mijozning Shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazilgan pul mablag'lari summasi bilan cheklanadi.

6.2. Xizmatni ko'rsatish uchun foydalilanidigan uskuna yoki dasturiy ta'minotning buzilishi yoki vaqtinchalik ishga yaroqsiz holga kelishi natijasida, shuningdek Servis-provayder yoki Bank kartasining emitenti tomonida texnik muammolar yuzaga kelganida Avtoto'lovning vaqtinchalik ishga yaroqsiz holga kelishi uchun Humans javobgar emas. Bunday holatda Mijoz Humans Xizmatlarini to'lash uchun mablag' kiritishning boshqa usullaridan foydalanadi.

6.3. Illova o'chirilganida, Sharhnomalar bekor qilinganida yoki qayta rasmiylashtirilganida, SIM-karta boshqa shaxsga topshirilganida Mijozga Avtoto'lovni o'chirib qo'yish va oldin bog'langan Bank kartalarini o'chirish tavsiya etiladi. Aytib o'tilgan harakatlar bajarilmaganida yuz berishi mumkin bo'lgan zarar va salbiy oqibatlar uchun javobgarlikni Mijoz o'z zimmasiga oladi.

## **7. Avtoto'lov xizmatining amal qilishi**

7.1. Mazkur Qoidalar ular Saytda e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

7.2. Ofertaning 4.3. bandiga muvofiq xizmatning ko'rsatilishi to'xtatilgan yoki Humans tomonidan xizmatning ko'rsatilishi to'xtatilgan vaqtdan boshlab Mijoz uchun Avtoto'lovning amal qilishi to'xtatiladi. Avtoto'lov xizmatining ko'rsatilishi Saytdagi tegishli xabarnomada ko'rsatilgan sanadan boshlab to'xtatiladi.

7.3. Humans ushbu Ofertani bir tomonlama tartibda o'zgartirishga haqli. Oferta Humans'ning Saytdagi tegishli xabarnomasida ko'rsatilgan vaqtdan boshlab o'zgartirilgan hisoblanadi. Agar o'zgarishlar kuchga kirganidan keyin Mijoz Avtoto'lovdan foydalishda davom etsa va xizmatni o'chirmasa, bunday o'zgarishlar Mijoz tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

7.4. Mijoz tomonidan ulangan Tarif, opsiya, aksiya va maxsus takliflarning ba'zi shartlari Oferta shartlariga ta'sir qilishi, uni bunday takliflarning shartlarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan darajada o'zgartirishi va/yoki to'ldirishi mumkin.